Javob: Arthur Robinson (Artur Robinson)

Savol 3. Rupelmonde shaxrining kenglik va uzoqligining taxminiy qiymati qanday?

Javob: 4°17'12"E 51°8'36"N

Savol 4. Rupelmonde shaxrida qaysi mashxur kartograf tug'ilgan?

Javob: Gerardus Mercator (Gerard Merkator)

Savol 5. Rupelmonde shaxrining kilometrlardagi taxminiy koordinatalari qanday?

Javob: 350 5,438

Savol 6. Rupelmondening joylashgan o'rni haqida shu ikki qiymat nimani aytishi mumkin?

Javob: Nolinchi meridiandan 350 kilometr g'arbroqda va ekvatoridan 5438 kilometr shimolroqda.

Savol 7. Qaysi shaxar taxminan quyidagi koordinatalarda joylashgan (kilometrlarda): 3243 6172?

Javob: Galich, Russia (Galich, Rossiya)

Savol 8. 30°E 31°N kenglik va uzoqlik qiymatlariga ega shaxarda qaysi kartograf tug'ilgan?

Javob: Ptolemy (Ptolemey)

Savol 9. Siz kiritgan koordinatalarda qaysi shaxar joylashgan?

Javob: Mulhouse, France (Myuluz, Fransiya)

Savol 10. Qaysi mashxur kartograf bu yerda tug'ilgan?

Javob: Johann Lambert (Iogann Lambert).

Nazorat savollari:

1. Monreal shaxrining gradus, minut va sekunddagi taxminiy kenglik va uzoqligi qanday?
2. Qaysi mashxur kartograf Monreal shaxrida tug'ilgan?
3. Rupelmonde shaxrining kenglik va uzoqligining taxminiy qiymati qanday?

4. Qaysi shaxar taxminan quyidagi koordinatalarda joylashgan (kilometrlarda): 3243 6172?
5. 30°E 31°N kenglik va uzoqlik qiymatlariga ega shaxarda qaysi kartograf tugʻilgan?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S.Avezbayev, O.S.Avezbayev. Geoma'lumotlar bazasi va uning arxitekturasini. O'quv qo'llanma, Toshkent 2015 yil.
2. K. T. Chang., Introduction to Geographic Information Systems 8th Edition. Mc Graw-Hill International Edition. USA 2015
3. E.Yu. Safarov, X.A. Abduraximov, R.Q. Oymatov. Geoinformatsion kartografiya. T, 2012.
4. S.S.Saidqosimov. Geoaxborot tizimlari texnologiyasi. T.: "Iqtisod moliya", 2011.
5. M. Zeiler. Modeling Our World: The ESRI Guide to Geodatabase Design, ESRI Press, 2010.
6. E.Yu.Safarov, I.M.Musayev, H.A.Abdurahimov. Geoaxborot tizimi va texnologiyalari. O'quv qo'llanma, Toshkent 2008 yil.
7. I. Masser. GIS Worlds: Creating Spatial Data Infrastructures, ESRI Press, 2005

2-amaliy mashg'ulot: Vektorli va rastrli ma'lumotlarni qog'ozda chizish. ArcMapda vektorli va rastrli ma'lumotlardan foydalanish.

Reja:

1. Geografik ob'ektlarni aks ettirish uchun vektorli hamda rastrli usullarni solishtirishni o'rganish. Kartaga rastrli ma'lumotlarni qo'shish.
2. Surat bo'lmagan rastrni aks ettirish. Rastr qiymatlarini aniqlash. Vektor va rastr ma'lumotlarini vizual taqqoslash.

Ishdan maqsad: Vektorli va rastrli ma'lumotlarni qog'ozda chizish.

Masalaning qo'yilishi: Bu topshiriqda siz rejalashtirilayotgan shahar parki uchun ob'ektlarni chizib chiqish.

Topshiriq 2A: Vektorli va rastrli ma'lumotlarni qog'ozda chizish.

Bajarish vaqti: 30 minut

Bu topshiriqda siz rejalashtirilayotgan shahar parki uchun ob'ektlarni chizib chiqasiz. Ob'ektlarni ikki marta chizasiz: avval vektorli usuldan foydalanib, so'ngra rastrli usul yordamida. Bu topshiriqda kompyuterdan foydalanilmaydi.

Topshiriq yakunida quyidagi malaka va ko'nikmalarga ega bo'lasiz:


- geografik ob'ektlarni aks ettirish uchun vektorli va rastrli usullarni taqqoslash.

1-bosqich. Vektorli usuldan foydalangan holda ob'ektlarni chizish

Quyidagi varaqda x va u o'qlariga va "**Park-Vektor**" sarlavxali millimetrovka mavjud. Rejalashtirilayotgan parkda futbol maydoni, suzish uchun basseyn, velesoped yo'lagi, qum maydonchasi, piknik uchun stollar va daraxtlar bo'ladi.

Quyidagi varaqda siz yuqorida sanab o'tilgan ob'ektlarni x va u koordinatalardan foydalangan holda chizasiz. Undan so'ng siz ularni yozib chiqasiz va geometriyasiga ta'rif berasiz.

Парк - Вектор



- Quyidagi ro'yxatda keltirilgan barcha ob'ektlarni chizib chiqing. Ob'ektni chizib olish uchun belgilangan koordinatalarga nuqtalar qo'yib chiqing (poligonli va chiziqli ob'ektlar uchun shunday nuqtalar cho'qqilar deb ataladi) va cho'qqilarni to'g'ri chiziq bilan tutashtirib chiqing.

- Ob'ektni chizib bo'lganingizdan keyin uning nimaligi kartada yozib chiqing.

- Ro'yxatdagi xar bir ob'ekt yonidagi yacheykalarni ularning geometriyasi bilan to'ldiring. **Eslatma:** Yodda tuting $\{x,y\}$ koordinatalari juftligida x qiymati birinchi va u qiymati ikkinchi bo'lib keladi.

| Объект номи | Координаталар | Геометрия тури |
|------------------|--|----------------|
| Дарахт | {22,20} | _____ |
| Футбол майдони | {2,2;12,2;12,19;2,19;2,2} | _____ |
| Пикник учун стол | {18,4} | _____ |
| Велесопед йўлаги | {12,12;19,12;19,10;26,10;26,14; 30,14;30,7} | _____ |
| Сузиш бассейни | {29,17;37,17;37,21;29,21;29,17} | _____ |
| Дарахт | {4,21} | _____ |
| Пикник учун стол | {23,20} | _____ |
| Кум майдони | {30,4;33,4;33,5;36,5;36,7;30,7;30,4} | _____ |
| Пикник учун стол | {28,12} | _____ |

2-bosqich. Rastli usuldan foydalangan xolda ob'ektlarni chizish

Endi siz boshqa kartani yaratasiz. Bu safar parkni o'zaro bog'langan yacheykalar yuzasi ko'rinishida tasavvur qiling. Xar bir yacheyka shu joyda joylashgan ob'ekt turini ko'rsatuvchi raqamga ega.

Bu misolda yacheyka qiymati xodisalar yoki kattaliklar o'lchashlari (masalan, balandliklar qiymatlari)ga ega emas. Xar bir yacheyka ob'ektni tasvirlash uchun maxsus kodga ega. Masalan "1" soni futbol maydonini anglatadi.

Millimetrovkadagi ob'ektlar joylashgan joylardagi yacheykalar kul rangda qolgan yacheykalar esa bo'shligini sezishingiz mumkin. Rastrda bo'sh yacheykalar bo'lishi mumkinmi? Ha. Xech qanday ma'lumotga ega bo'lmagan yacheykalar maxsus qiymatlar "No Data"ga ega bo'lishi mumkin. Bu topshiriqda xar bir oq kvadrat "No Data" yacheykasidir.

Shuningdek parkdagi geografik ob'ektlar qatorlar va ustunlar xolatiga qarab aniqlanadi, x va u koordinatalari asosida emas.

- Kul rang kvadratlarni quyida keltirilgan ro'yxatdagi qiymatlar bilan to'ldirib chiqing (futbol maydoni to'ldirilib bo'lingan).

| Nomi | Qiymati |
|----------------------|----------------|
| Futbol maydoni | 1 |
| Daraxtlar | 2 |
| Piknik uchun stollar | 3 |
| Qum maydoni | 4 |
| Suzish basseyni | 5 |
| Velesoped yo'lagi | 6 |

Savol 1. Sizningcha parkni modellashtirish uchun qaysi usul yaxshiroq vektorlimi yoki rastrli? Nimaga?

Xulosa

Bu topshiriqda siz rastrli yuzalar va vektorli ob'ektlar bilan ishlash tajribasiga ega bo'ldingiz.


Topshiriq 2A savollari javoblari

Savol 1. Sizningcha parkni modellashtirish uchun qaysi usul yaxshiroq vektorlimi yoki rastrli? Nimaga?


Javob: Yaxshiroq usul bo'lib vektorli usul hisoblanadi, chunki u ob'ekt shaklini yanayam aniqroq aks ettirish imkonini beradi. Rastrli usul har bir ob'ektni yacheyka o'lchamigacha qo'pollashtirvoradi (bu muammo yacheyka o'lchami kichraytirilgan xollarda unchalik bilinmaydi).

Topshiriq javoblari

Парк - Вектор



Парк-растр



Nazorat savollari:

1. Sizningcha parkni modellashtirish uchun qaysi usul yaxshiroq vektorlimi yoki rastrli? Nimaga?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S.Avezbayev, O.S.Avezbayev. Geoma'lumotlar bazasi va uning arxitekturasi. O'quv qo'llanma, Toshkent 2015 yil.
2. K. T. Chang., Introduction to Geographic Information Systems 8th Edition. Mc Graw-Hill International Edition. USA 2015
3. E.Yu. Safarov, X.A. Abduraximov, R.Q. Oymatov. Geoinformatsion kartografiya. T, 2012.
4. S.S.Saidqosimov. Geoaxborot tizimlari texnologiyasi. T.: "Iqtisod moliya", 2011.
5. M. Zeiler. Modeling Our World: The ESRI Guide to Geodatabase Design, ESRI Press, 2010.
6. E.Yu.Safarov, I.M.Musayev, H.A.Abdurahimov. Geoaxborot tizimi va texnologiyalari. O'quv qo'llanma, Toshkent 2008 yil.
7. I. Masser. GIS Worlds: Creating Spatial Data Infrastructures, ESRI Press, 2005

3-amaliy mashg'ulot: Metama'lumotlardan foydalanish.

Reja:

1. Loyiha natijalarini baholashda har bir aniq ishtirokchining ishtirok etish.
2. Loyiha natijalarini baholash bo'yicha qabul qilingan ko'rsatkichlarning tarkibi. O'z ma'lumotlaringiz to'g'risida axborotlarni olish uchun metama'lumotlaridan foydalanish.

Ishdan maqsad: Janubiy Amerika va Amazonka basseyni kartalari bilan ishlash.

Masalaning qo'yilishi: Siz kartaga yangi qatlam qo'shasiz, mavjud qatlam o'rniga yanada mosroq keladigan qatlamni qo'yasiz va agarda vaqt qolsa boshqa qatlam atributlarini xam o'rganib chiqasiz.



Bajarish vaqti: 30 minut


Ushbu mashg'ulotda siz Janubiy Amerika va Amazonka basseyni kartalari bilan ishlaysiz. Siz kartaga yangi qatlam qo'shasiz, mavjud qatlam o'rniga yanada mosroq keladigan qatlamni qo'yasiz va agarda vaqt qolsa boshqa qatlam atributlarini xam o'rganib chiqasiz.

Ushbu mashg'ulot yakunida siz quyidagi malaka va ko'nikmalarga ega bo'lasiz:

- Arc Catalog dan ma'lumotlarni topish;
- Arc Catalog da ma'lumotlarni ko'rib chiqish;
- Arc Map dan Arc Catalog ga ma'lumotlarni qo'shish;
- O'zingizning ma'lumotlaringizni olish uchun metama'lumotlarni qo'llash.

1-bosqich. Arc Catalog ni ishga tushirish

- Ishchi stolda Arc Catalog  belgisiga ikki marta bosing (yoki Pusk (Start) ni bosib, Barcha programmalar (All Programs) – ArcGIS – ArcCatalogga bosing)
- Kataloglar daraxtidan /Talaba/Ma'lumotlar katalogiga o'ting va uni oching
- Topshiriq06 papkasini bosing
- Detallar (Details)  tugmasini bosing agarda u xali bosilmagan bo'lsa



Mundarija (Contents) zakladkasida siz Amazon nomli karta xujjati uchun belgini ko'rasiz

2-bosqich. Arc Catalog hujjatini ochish

- Mundarija (Contents) zakladkasidagi Amazon karta xujjatiga ikki marta bosing. Bu Arc Map ni ishga tushurishning va saqlab qo'yilgan karta xujjatini ochishning alternativ usuli hisoblanadi.
- Karta xujjati ochilganda o'z kartangiz tasvirini quyidagi surat bilan taqqoslang. Agar tasvir bir-biridan farq qilsa, u holda Arc Map oynasini kattalashtiring va G'arbiy Amerika oynasidan foydalaning.




Siz G'arbiy Amerikaning barcha asosiy shaharlar nomi bilan ko'rsatilgan kartasini ko'rmoqdasiz.

E'tiboringizni Amazonkaning qatlamlarining joylashuviga qarating. 1:25 000 000 masshtabga yaqinlashganingizda ob'ektlar qatlami tasvirlana boshlaydi.


Oq hudud okean bilan to'ldirilganda karta yaxshiroq ko'rinishga ega bo'ladi. Fazoviy ob'ektlarning klassini qidirish uchun okeanni tasvirlay oladigan Arc Catalog ga qaytasiz.


3-bosqich. Fazoviy ob'ektlar klasslarining grafik namunalarini ko'rish

- Arc Catalog ga qaytib kiring
- Kataloglar daraxtida **Ma'lumotlar** papkasini oching.
- Mundarija (Contents)dagi fazoviy ob'ektlar bilan tanishing.



Nomlarning hech qaysisi hududlar haqidagi ma'lumot olish imkonini bermaydi. Lekin nomlar to'g'risidagi ma'lumotni bilash uchun ma'lumotlarni o'xshashligiga ahamiyat berish zarur.

- **Namunalar (Thumbnails)**  tugmasiga bosing. Endi (Contents) mundarijasida har bir klassning kichik tasvirini ko'rmoqdasiz.
- Namunalarning ro'yxatini ko'rib chiqing, okean bo'yicha ma'lumotlarga o'xshashi bormikan



Agar ko'rib chiqilgan ma'lumotlar ichida o'xshash ma'lumotlar bo'lmasa u holda meteoma'lumotlarga murojaat qilishingiz mumkin.

4-bosqich. Meteoma'lumotlarni Arc Map ga qo'llash uchun foydalanish

- (Metadata) tugmasini bosing.
- South America geobazasini katalogda oching.
- Fazoviy ma'lumotlarda ob'ektlarini tasvirlash uchun Admin tugmasini bosing.
- Metama'lumotlarda ko'k rangli Description tugmachasi mavjudligiga ishonch hosil qiling.
-



- Yashil rangli Abstract, Purpose va Supplementary Information gacha pastga aylantiramiz.

Abstract mavzusi ma'lumotlarni ko'rsatib beradi, Purpose mavzusi sizga ularni nimaga qo'llashda foydalanilishini aytadi. Supplementary Information tarkibida qolgan barcha foydali axborotlar bo'lishi mumkin.

- Turli xil fazoviy ob'ektlar sinflari uchun metama'lumotlarni Purpose mavzusida okean ko'rinishida aks ettirish uchun foydalanilishi mumkin deb aytilganini topmaguningizgacha ko'rib chiqing. Eslatma: okean ob'ektlari nuqtali yoki chiziqli fazoviy ob'ektlari sinflari sifatida aks ettirilishi extimoli judayam kam.

Savol 1. Sizga kerakli bo'lgan fazoviy ob'ektlari sinfining nomi nima?

-
- Katalog daraxtida shu fazoviy ob'ektlar sinfiga bosing.
 - ArcCatalogdan uni olib ArcMapping elementlar jamlangan jadvaliga ko'chirib o'tkazing.

Fazoviy ob'ektlar sinfi ArcMap ga yangi qatlam sifatida qo'shiladi, xuddi agar qo'shish tugmasi (Add Data) foydalanganingizdagidek.

- ArcCatalog katalogni kichiraytiring



Yangi qatlam tasodifiy tanlangan rang bilan tasvirlanadi- balki ko‘k yoki boshqa rangda.

“World30” nomi (30 gradusli intervalli kenglik va uzoqlikni tasvirlovchi chiziqqa tegishli) boshqacha sirli ravishda jaranglaydi. Keyingi bosqichda qatlam qayta nomlanadi. Ushbu karta uchun chiziq uzoqligi va kengligi zarur emas, shuning uchun qatlam boshqacha belgilanadi.


5- bosqich. Yangi ArcMap qatlamni belgilanishi va nomlanishi

- World30 qatlami nomini Okeanlarga o‘zgartiring.

Siz South_America geoma’lumotlar bazasidagi World30 fazoviy ob’ektlar sinflari nomini o‘zgartirmadingiz. Siz faqatgina ushbu karta xujjatidagi qatlamning nominigina o‘zgartirdingiz.

Barcha o‘zgartirishlar –ushbu karta xujjatidagi qatlam nomi.

- Elementlar jamlangan jadvalda Okeanlar qatlamining ustiga bosing.
- Simvol tanlash (Symbol Selector) oynasida Blue kontursiz simvoliga bosing (birinchi qator, o‘rtadagi simvol) va OK ni bosing.



Uzoqlik va kenglik chiziq-lari boshqa tasvirlanmayapti.



Siz birinchi topshiriqni bajardingiz- okean qatlami qo‘rsatkichlarini qo‘shish.

6-bosqich. Janubiy Amerika ma‘lumotlarini o‘rganish

- Amazonka basseynlari zakladkasini oching.

Amazonka basseynidagi miq‘yosga bog‘liq bo‘lgan Shaxarlar qatlami ko‘rinadigan bo‘ladi.

- Shu qatlam uchun yozuvlarni yoqing. Eslatma: qatlam nomiga siichqonchanning o‘ng tugmasini bosning va ochilgan kontekstli menyudan kerakli punkt-ni tanlang.



- Delta Amazonka zakladkasini oching.

Ushbu miq'vosda (taxminan 1:5 000 000 dan 1:7 000 000 gacha) deltadagi orollar tamvirlari ancha qo'pol bo'lib tuyuladi – xaqiqiy orollardan ko'ra ko'proq oddiy geometrik shakllarga o'xshaydi.

- Amazonka tizimi deltasidagi ikkita daryo nomlarini tekshirish (Amazon va Xingu) uchun karta eslatmalari (Map Tips) dan foydalaning.
- Guapore Daryosi zakladkasidan foydalaning.
- Guapore Riverni identiifikatsiyalash uchun karta eslatmalaridan foydalaning.
- Davlatlar qatlami yozuvlarini yoqing.

7-bosqich. Daryolar va Davlatlar qatlamlarining metama'lumotlarini solishtirish

- Elementlar jamlangan jadvalda Daryolar qatlami ustiga sichqonchani o'ng tugmachasini bosib va Ma'lumotlar (Data) punktiga o'ting va Metama'lumotlarni ko'rish (View Metadata)ga bosib.

ArcMap oynasidan yuqoriroqdagi yangi oynada qatlam metama'lumotlari paydo bo'ladi. Siz metama'lumotlarni ArcMapda yoki ArcCatalogda ko'rib chiqishingiz mumkin, lekin faqatgina ArcCatalogda ularga o'zgartirishlar kiritishingiz mumkin.

- Metama'lumotlar oynasida ko'k rangli Description zakladkasi yonib turganiga ishonch xosil qiling.
- Pastga yashil Supplementary Information mavzusigacha tushuring.
- o Metama'lumotlari oynasini yoping.
- o Shaxarlar qatlami metama'lumotlarini ko'rish uchun xuddi shunday amalni bajaring.


2-savol: Bu qatlamni ko'rish uchun qanday miq'vos to'g'ri keladi?

-
- Metama'lumotlar oynasini yoping

8-bosqich Mamlakatlar uchun fazoviy ob'ektlarni eng aniq klassini qidirish va uni ArcMap qo'shish.

Страны qatlamini boshqa eng aniq qatlam fazoviy ob'ekt klass joriy qatlam bilan almashtiring. Lekin qanday fazoviy ob'ekt klass joriy qatlam ssылka qilinganligini bilish kerak. Qatlam nomini xabar berish kerak emas. Chunki okean qatlami World 30 fazoviy ob'ektlar klassida barpo qilingan.

- Страны qatlami uchun svoystva qatlami dialogovoy oynasini oching. Eslatma: qatlamdagi o'ng knopkani bosing va svoystva tanlang.
- Svoystva qatlami dialogov oynasida istochnik zakladkasini bosing.
- Diqqatni qarating: Страны qatlami fazoviy ob'ektlar klassida South _America geoma'lumotlar bazasida Countries_gen nomi bilan tashkil qilingan.



- Bekor qilishni bosing svoystva qatlami dialogov oynasidagi
- Arc catalog prilojeniyasini aktivlashtiring
- South _America geo ma'lumotlar bazasidagi boshqa klass fazoviy ob'ekt toping
- U mamlakatlar chegarasini tasvirlash mumkin, lekin davlat chegarasini emas.
- U 1:15000000 tasvirlanishi mumkin.

3-savol: bu shartni qoniqtiruvchi fazoviy ob'ektlar klassi qanday nomlanadi?

Katalog tarqatmasi fazoviy ob'ektlarni ushbu klassda bosing.

- Arc Map mundarija jadvaliga olib keling, страны qatlamining ustiga qo'ying. Yangi qatlam tasodifan tanlangan bitta rangda tasvirlandi.



- Arc Catalog oynasini minimizatsiya qiling.

3-amaliy mashg'ulot uchun savollar va javoblar:

1-savol: sizga kerakli fazoviy ob'ekt nima deyiladi?

Javob: World 30

2-savol. Bu qatlamni ko'rish uchun qaysi masshtab ko'proq to'g'ri keladi?

Javob: 1:50000000

3-savol. Bu shartlarni qoniqtiradigan fazoviy ob'ektlar sinflari qanday nomlanadi?

Javob: Countries_dti.

Nazorat savollari:

2. Sizga kerakli fazoviy ob'ekt nima deyiladi?
3. Bu qatlamni ko'rish uchun qaysi masshtab ko'proq to'g'ri keladi?
4. Bu shartlarni qoniqtiradigan fazoviy ob'ektlar sinflari qanday nomlanadi?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. K. T. Chang., Introduction to Geographic Information Systems 8th Edition. Mc Graw-Hill International Edition. USA 2015.
2. S.Avezbayev, O.S.Avezbayev. Geoma'lumotlar bazasi va uning arxitekturasi. O'quv qo'llanma, Toshkent 2015 y.
3. E.Yu. Safarov, X.A. Abduraximov, R.Q. Oymatov. Geoinformatsion kartografiya. T, 2012.
4. S.S.Saidqosimov. Geoaxborot tizimlari texnologiyasi. T.: "Iqtisod moliya", 2011.
5. M. Zeiler. Modeling Our World: The ESRI Guide to Geodatabase Design, ESRI Press, 2010.

6. E.Yu.Safarov, I.M.Musayev, H.A.Abdurahimov. Geoaxborot tizimi va texnologiyalari. O'quv qo'llanma, Toshkent 2008 y.

7. I. Masser GIS Worlds:Creating Spatial Data Infrastructures, ESRI Press, 2005.

4-amaliy mashg'ulot: ArcMapda so'rovni yaratish. ArcMapda joylashishiga qarab so'rovni bajarish. ArcMapda joylashishiga qarab so'rovni bajarish.

Reja:

1. ArcCatalogda ma'lumotlarni topish. Ma'lumotlarni ArcCatalogda o'rganib chiqish. ArcMapga ArcCatalogdan ma'lumotlarni qo'shish.
2. O'z ma'lumotlaringiz to'g'risida axborotlarni olish uchun metama'lumotlaridan foydalanish.

Ishdan maqsad: ArcMapda joylashishiga qarab so'rovni bajarish.

Bajariladigan vaqt: 30 minut

Masalaning qo'yilishi: Siz ob'ektlarni ularni qiymatiga binoan qanday tanlashni bilib oldingiz. Agarda siz ob'ektlarni ularni joylashishga binoan tanlashni haqlasangizchi? Unda sizga ma'lum masofagacha bo'lgan barcha yer uchastkalari, okrug ichidagi barcha savdo markazlari yoki barcha kasalxonalarini topish kerak bo'ladi. Atribut so'rovi kabi, siz barcha ob'ektlarni bir martada tanlash uchun joylashishi bo'yicha so'rovdan foydalanishingiz mumkin.

Ushbu mashqda siz Floridaning barcha parklarni qidirish uchun joylashishi bo'yicha so'rovni yaratamiz. Keyin siz ikkinchi so'rovni yaratish orqali tanlangan parklar qaysi ekoregionda joylashganligini aniqlashingiz mumkin.

Siz ushbu mashqni bajarib quyidagilarni bilib olasiz:

- So'rovni yaratish uchun joylashishi bo'yicha tanlash (Selet By Location) dan foydalanish;

- Ob'ektlarni ularning turli turlariga asosan fazoviy joylashishni tanlash uchun joylashishi bo'yicha tanlash (Selet By Location) dan foydalanish.

1 – bosqich: Kartaning xujjatlarini ochish


- Zaruriyat bo'lsa Arc Map ni ishga tushiring.

- Agarda oldingi mashqdan keyin Florida_Query.mxd kartaning xujjatlari ochiq qolmagan bo'lsa, uni /Talaba/Ma'lumotlar/Topshiriq04 katalogini oching.

- Agarda karta xujjatlarini ochishda o'zgarishlarni saqlash haqidagi dialog hosil bo'lsa Net (No) ni bosing. Sizning ro'parangizda Floridaning okruglari va shaharlari kartasi namoyon bo'ldi.

2 – bosqich: Ma'lumotlar Freymini aktivlashtirish

Ushbu kartaning xujjatlari ikkita ma'lumotlardan freymi iborat. Oldingi mashqlarda siz aholi punktlari ma'lumotlar freymidan foydalangan edingiz. Ushbu mashqda siz tabiat ma'lumotlar freymidan foydalanasiz.



○ Mundarijalar jadvalidan aholi punktlari ma'lumotlar freymini aylantiring

○ Tabiat ma'lumotlar freymini o'chiring (aylantiring)

○ O'ng tugmacha bilan tabiatni bosing va aktivlashtirishni (Activate) tanlang. Kartada Floridaning ekoregionlari namoyon bo'ladi.

○ Florida shtatining parklari va milliy tasviriy san'at maydonlari qatlamini ulang.

3 – bosqich: Joylashish bo'yicha so'rovni yaratish

Faraz qilamiz, siz milliy tasviriy san'at maydonlari bo'ylab sayr qilishni va yo'l – yo'lakay yaqinda joylashgan parklarga kirishni rejalashtiryapsiz. Siz avval qaysi parklar milliy tasviriy san'at maydolarida 1,5 mil oralig'ida

joylashganligini aniqlab olasiz. Keyin siz bu parklar qaysi ekoregionga tegishligini aniqlaymiz. Bu ma'lumotlar sizga, qaysi ekoregionlarni kesib o'tganizda, qanday relef, iqlim, o'simlik va xayvonlar yo'lda sizni kutayotganligini bilishga yordam beradi.

○ Tanlash (Selection) menyusidan joylashishi bo'yicha tanlash (Select By Location) ni joylashishi bo'yicha tanlash. (Select By Location) muloqot oynasi paydo bo'ladi. U quyidagi komponentlardan iborat.

- Joylashishi bo'yicha so'rov yozuvi
- Tanlash usullarini ro'yxati
- Qatlamlar ro'yxati
- Fazoviy joylashish turlari ro'yxati
- Qatlamlar ro'yxati
- Masofalar va birliklar qiymatini kiritish joyi
- Joylashish bo'yicha so'rov tugmasi

○ Tanlash usuli sifatida “ob'ektlarni tanlash” (Select Features from) jarayonini tanlang

○ Qatlamni tanlash uchun Florida shtati parklar ro'parasiga belgi qo'ying.

○ Qo'yingi ro'yxatda Floridaning milliy tasviriy san'at qatlamlari ro'yxatini tanlaganingizga iqror bo'ling.

○ Metr (Meters) o'lchov birligini mili (miles) bilan o'zgartiring

○ Masofa qiymatini ajrating va **1,5** ni tering.

Sizning so'rovingiz taxminan quyidagicha ifodalanadi: “Men Floridaning milliy tasviriy san'at maydoni ob'ektlaridan ma'lum masofada joylashgan parklarni tanlashni

xoxlayman” men Floridaning 1,5 milga teng milliy tasviriy sa’at maydonlari ob’ektlari uchun buferidan foydalanaman.

4 – bosqich: joylashishi va natijalarni o‘rganish bo‘yicha so‘rovni qo‘llash

- Muloqot oynasi tagidagi qo‘llash (Apply) ni bosing
- Karta ko‘ringuncha muloqot oynasining siljiting.

Siz maydon bo‘ylab ko‘plab parklarni yoqilganini ko‘rasiz.

- Tanlash (Selection) menyusidan batafsil ko‘rish uchun tanlangan ob’ektga yaqinlashish (Zoom to Selected Features) ni tanlang.
- Florida shtati parklari qatlami atributlari jadvalini oching.

1 – savol Qancha park tanlandi?

-
- Tanlangan (Selected) ni bosing.

Faqat tanlangan va yoritilgan parklar tasvirlanadi

- O‘ng tugma yordamida SITE_NAME ni bosing va parklarni alfavit tartibida tasvirlash uchun o‘sishi bo‘yicha ajratish (Sort Ascending) ni tanlang.
- Atribut jadvalini yoping.

5 – bosqich: joylashish bo‘yicha yangi so‘rovni yasash

Endi siz tasviriy san’at maydonidan 1,5 mil oralig‘idagi parklarni tanlangandan keyin, ular qaysi ekoregionda joylashganligini aniqlashini hohlaysiz.

- Joylashishi bo‘yicha (Select By Location) muloqot oynasidan Florida shtati parklaridan bayroqchalarni olib tashlaymiz va Floridaning ekoregionlarini tanlaysiz.

- Fazoviy joylashishi turlarini tanlash uchun “ob’ektlarni kesib o’tadi” (Intersect) ni tanlang

- Qatlamlarning ikkinchi ro‘yxatidan Florida shtatlari parklarini tanlang

- Tanlangan ob’ektlardan foydalanish (Use seleted features) yaqinida bayroqcha belgilanganligiga iqrор bo‘ling.

- Bufurni qo‘llash (Apply a Buffer) yaqinadi bayroqcha belgilanganmaganligicha iqrор bo‘ling.

Sizning joylashish bo‘yicha so‘rovingiz rasmda ko‘rsatilgan kabi ko‘rinishga ega bo‘lishi kerak. U quyidagicha izoxlanadi; “Men Florida ekoregionlari ichidan Florida shtati parklari kesib o‘tadigan ob’ektlarni tanlashni xoxlayman”.

Позволяет выбирать объекты из одного или нескольких слоев на основании их положения по отношению к объектам другого слоя.
Я хочу выполнить следующую операцию:

выбрать объекты

над объектами слоев:

- Национальные живописные тропы Флориды
- Парки штата Флорида
- Экорегионы Флориды
- Штаты

Показывать в списке только доступные для выборки слои

Выбираемые объекты удовлетворяют следующим условиям:

пересекают объекты

слоя:

Парки штата Флорида

Использовать выбранные объекты (17 объектов выбрано)

Применить буфер к объектам в слое Парки штата Флорида

1.500000 Мили

Справка OK Применить Закрыть

- Joylashishi bo‘yicha so‘rovni qo‘llash uchun OK ni bosing va muloqot oynasini yoping.

- Kartada tanlangan ekoregionlar yoritiladi.

- Florida ekoregionlari qatlami atributlar jadvalini oching va 9 ta ekoregionni tanlanganini ko‘rasiz.

- Tanlangan (seleted) ni bosing.


- DESCRIPT maydonini toping

- Agarda hohlasangiz, alfabit tartibida DESCRIPT maydonini ajrating

Ajratib olingan rejalar tarkibiga tog‘ qoyalari va tog‘yonbag‘ri, o‘rmonlar, botqoqliklar, tekislik va tepaliklar kiradi.

Endi siz tanlangan ekologik regionlar ro'yxati bilan tanishgandan keyin kartaga qaytasiz va rasmlarni tasvirlash uchun giperssilka (Hyperlik) dan foydalanasiz.

- Atribut jadvalini yoping.

- Instrumentlar (Tools) panelida Giperssilka (Hyperlik)  ni bosib, keyin kartada tanlangan regionlardan bittasini bosib. Alog'ida oynada berilgan ekologik region haqida tassavur beruvchi tasvir hosil bo'ladi.

- Ixtiyoriy tanlangan regionni bosib.

Xulosa. Ushbu mashqda siz joylashishi bo'yicha ikkita so'rov yaratdingiz. Birinchisida siz parklar tasviriy san'at maydoni yaqinida, ikkinchisida ajratilgan parklar joylashgan ekoregionlarni tanladingiz. Har bir izohni qo'llangandan keyin karta va atributlar jadvalini o'rganish asosida natijalarni tekshiringiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

4. Charles D. Ghilani and Paul R. Wolf. Elementary Surveying - An Introduction to Geomatics, 12th Edition _ textbook. USA, New Jersey, 2013

5. **Antonovich K.M.** Ispolzovaniye sputnikovyx radionavigatsionnykh sistem v geodezii. V 2 tomax. GOU VPO «Sibirskaya gosudarstvennaya geodezicheskaya akademiya». - M.: FGUP «Kartgeotsentr», T 1: 2005. - 334 ye.: il., T 2: 2006. - 360 s.: il

6. Genike A.A., Pobedinskiy G.G. Globalnaya sputnikovaya sistema opredeleniya mestopolojeneya GPS i yeyo primeneniye v geodezii. M.: Kartgeotsentr-Geodezizdat, 1999g.

V. KYeYSLAR BANKI

1-Keys

Sotsial-iqtisodiy kartalarni tuzishda manbalar to'liq va mukammal bo'lishi kerak. Foydalaniladigan materiallar ma'lum bir ma'muriy hududga tegishli bo'lishi zarur. Agar, ma'lumotlar tumanlar bo'yicha olinsa, kerakli ma'lumotlar tuman miqyosida bo'lishi kerak, agar tumanga tegishli yetarli ma'lumot bo'lmasa bu materiallarni to'liq, deb bo'lmaydi, natijada ular karta tuzish ishlarini qiyinlashtiradi.

O'zbekistonda tekstil sanoati kartasida paxtadan tayyorlangan tekstil mahsulotlari bilan ipakdan tayyorlangan mahsulotlarni m² ko'rsatgichda emas, balki ularni narx ko'rsatgich so'm hisobida ko'rsatilishi kerak. Lekin bu ham to'liq mazmun bermasligi mumkin.

Asosiy manba bo'lib aholini ro'yxatga olish manbalari hisoblanadi (1959, 1969 va 1989 yilgi aholini ro'yxatga olish materillari), ular orqali olinadigan manbalar (tug'ilish, o'lim, tabiiy o'sish, aholi migratsiyasi va boshqalar) asosiy manbalar hisoblanadi. Shu ko'rsatkichlar ko'proq qishloq aholisii bilan bog'liq bo'lgan kartalar tuzishda asosiy manba hisoblanadi. Lekin aholi bo'yicha yillik statistik ma'lumotlarda jinsi, yoshi, ishga yaroqli aholi soni va uni ish bilan ta'minlanganligi to'g'risidagi to'liq ma'lumoti olish qiyinroq bo'lishi mumkin. Nima uchun ma'lumotlar faqat bir xududga tegishli bo'lishi lozim? Karta to'liq mazmunga ega bo'lish uchun miqdor ko'rsatkichlar tasvirlanishi shartmi? Aholini ruyxatga olish manbalari eski bo'lganda ham ulardan foydalanib kartalar tuzish mumkinmi?

2-Keys

Geografik asos kartaning asosiy mazmun bo'lmasada, uni karta tuzishda ahamiyati katta. Lekin ba'zi bir chet ellarda chop etilgan atlaslar mavzuli kartalarida geografik asosga yetarlicha e'tibor berilmaganligi sababli, kartadan yetarli darajada berilmasligi natijasida geografik asos elementlari bilan kartadagi mavzu orasidagi o'zaro bog'liqlikni va geografik tarqalish qonuniyatlarini aniqlash ancha murakkab. Shu bilan birga respublikamizda chop etilgan o'quv atlaslaridagi ba'zi bir sotsial-iqtisodiy kartalarda geografik asos elementlari juda mukammal ifodalangan natijada kartaning o'qish darajasi qiyinlashgan. Masalan, 8-sinf uchun nashr etilgan "O'zbekiston iqtisodi va sotsial geografiyasi" atlasdagi "Chorvachilik" kartasi (masshtab 1:4000000). Geografik asos kartaning asosi bo'la oladimi? Kartaning mazmuni geografik asos elementlariga bog'likmi?

3-Keys

Sotsial-iqtisodiy kartografiyada ikkita asosiy yo‘l bilan kartalashtirish ishlari olib boriladi: ekspeditsiya (dala ma‘lumotlari asosida) va kameral sharoitda (xonada).

N.N. Baranskiy yirik masshtabli kartalar yaratishda ekspeditsion usuldan foydalanishni iqtisodiy kartografiyaning muhim vazifalari qatoriga qo‘shgan edi, uning fikricha, bu usul orqali kartografiyaning sotsial-iqtisodiy sohasi haqiqiy geografik yo‘nalish olishi va formal-statistik usuldan ajratilishi mumkin edi. Lekin ekspeditsion usul kartalarni tuzishga bag‘ishlangan usullardan biri bo‘lishiga qaramasdan, sotsial-iqtisodiy kartalashtirishga bag‘ishlangan o‘quv adabiyotlarida hozirgacha talab darajasida rivojlanmagan. Ekspeditsion yo‘l bilan kartalar tuzilayotganda juda ko‘p vaqt ketadi, bu esa kartaning aktualligi masalasiga ancha ta‘sir etadi.

Sotsial-iqtisodiy kartalashtirishda vaqtni tejash maqsadida eng yangi ma‘lumotlar ishga jalb qilinadi, iqtisodiy jihatdan kam harajatli kartalashtirish usullari tanladi, ishga ko‘proq aerokosmik materiallar va GAT tizimi jalb qilinadi. Sotsial-iqtisodiy kartografiyada kartalashtirishning asosiy yo‘llari qanday? Ekspeditsion usuldan foydalanish iqtisodiy kartografiyaning asosi bo‘la oladimi?

4-Keys

Jahonning iqtisodiy kartalarini tuzish uchun xorijiy davlatlar kartalarida “kesilgan” proyeksiyalardan ko‘proq foydalaniladi. Bunday komponovkani qulay, deb bo‘lmaydi, chunki u yer yuzasini bo‘ladi, global va kontinentlaroro mavjud sotsial-iqtisodiy aloqalarni to‘g‘ri tushunishni ta‘minlamaydi. Bundan tashqari, kun sayin iqtisodiy va siyosiy ahamiyatga ega bo‘lib boryotgan jahon okeaniini to‘liq ko‘rsatmaydi.

Geografik kartografiyaning ilmiy-ma‘lumotnomali kartalashtirilishi nuqtai nazaridan qaralganda, turli proyeksiyali komponovkalar ob’ektlarning geografik o‘xshashligini buzadi.

Xorijiy sotsial-iqtisodiy kartalashtirishda geografik tur ko‘pincha kartada tasvirlanmaydi. Bu esa sotsial-iqtisodiy o‘ektlarning geografik fazo va boshqa ob’ektlar bilan bog‘liqligini to‘liq ifodalaymaydi. Jahon iqtisodiy kartalarini tuzish uchun proyeksiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladimi? Geografik kartografiyaning ilmiy ma‘lumotnomali kartalashtirilishi turli proyeksiyali komponovkasi ob’ektlarining geografik o‘xshashligini bo‘zmaydimi? Geografik tur kartalarda nima uchun tasvirlanmaydi?

5-Keys

Tasvirlash usullarini tanlashga ro‘yxatli-statistik manbalarning detallashganligi, geografik aniqlik darajasi va xususiyatlari katta ta‘sir etadi. Shu bilan bir qatorda, kartada bir-biriga o‘xshash belgilarni geografik xususiyatlari turli bo‘lgan voqea va hodisalarga qo‘llash mumkin emas. Bunday vaqtda 2 ta yoki undan ortiq kartalar tuzilishi zarur bo‘ladi. Shkalalar bosqichlarini tanlashda turli algoritmlardan foydalaniladi. Bu yo‘l juda qiyin, lekin chuqur matematik tahlilni ta‘minlaydi.

Hodisalarning detallashganligi va murakkab sifat ko'rsatkichligi bilan kartalarning maqsadi orasida teskari bog'liqlik mavjud. Sifat ko'rsatkich va hodisalarning geografik tarqalishi orasidagi muammo sotsial-iqtisodiy kartografiyada juda qiyin yechiladi, bunga ro'yxat-statistik ma'lumotlarning hodisalarni fazoviy tarqalishini belgilamasligidir.

Agar sifat ko'rsatkichlar oddiy yoki kompleks xususiyatga ega bo'lsa, ularni kartada ko'rsatishda unchalik qiyinchilik tug'ilmaydi, lekin bunday ko'rsatkichlar bilan biror bir murakkab bog'liqlik, tizimli aloqalar ifodalanishi kerak bo'lganda – masala qiyin yechiladi. Tasvirlash usullarini tanlashga qanday manbalar zarur? Sifat ko'rsatkich va hodisalarning geografik tarqalishi orasidagi muammo nimalardan iborat? Biror bir murakkab bog'liqlik, tizimli aloqalar ifodalanishi nima uchun qiyin kechadi?

6-Keys

Sotsial-iqtisodiy kartografiyada kartalarni jihozlash sotsial-iqtisodiy hodisalarning o'ziga xos geografik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda olib boriladi. Vaqt va makonda hodisalar dinamikasini tasvirlashda katta muammo tug'iladi, masalan, iqtisodiy a'loqalarni, yuk tashish tarkibini, ularning hajmini va h.k. Miqdor ko'rsatkichlarga oddiy shkalali belgilarni ishlatishni talab etadi.

Kartaning legendasi to'liq, mazmunga va jihozlash belgilariga to'g'ri kelishi, tushunarli, qisqa, ma'lum bir tizim asosida qurilishi, ixcham bo'lishi kerak (Salimov, 1987). Sotsial-iqtisodiy kartalarda elementardan tortib to eng murakkab - tipologik legendalargacha ishlatiladi. Agar legendada ob'ektlar klassifikatsiyasi tasvirlanayotgan bo'lsa (aholining milliy tarkibi va zichligi) legenda jadval ko'rinishda quriladi, bu esa ob'ektlar orasidagi bog'liqlikni ta'minlaydi. Lekin ko'pchilik hollarda kartalashtirilayotgan hodisalar klassifikatsiyasi parallel yoki ketma-ket tarzda legendada keltiriladi. Ketma-ketlik yo'li ishlatilganda ob'ektlarni qanday tartibda joylashtirish masalasini yechish kerak.

Matn tanlashda tasvirlanayotgan hodisalarning geografik xususiyatlarini, ularning rivojlanishini, ba'zan detallashganlik darajasini e'tiborga olish kerak. Kartalarni jihozlash sotsial-iqtisodiy hodisalarning o'ziga xos qanday xususiyatlaridan kelib chiqadi? Jihozlash belgilariga nimalar, qanday ma'lumotlar to'g'ri kelishi kerak? Matn tanlashda tasvirlanayotgan hodisalarning qanday xususiyatlariga e'tibor berish zarur?

7-Keys

GAT texnologiyalari keng ma'noda ko'p sonli axborot komponentlari bilan bog'lik. Axborotlarni to'plash, saqlash, ularni tahlil qilish va ulardan samarali foydalanish uchun zamonaviy GAT dasturiy ta'minotlarini qo'llagan holdagina kerakli natijalarga erishish mumkin bo'ladi. Shunday dasturiy ta'minotlardan biri sifatida ESRI kompaniyasining ArcGIS dasturini misol keltirsa bo'ladi. ArcGIS dasturida geografik axborotlarni uchta turdagi geoma'lumotlar bazalarida saqlash, tahrir qilish va boshqarish mumkin.

| | |
|--|--|
| ArcGIS dasturining afzalliklari | |
|--|--|

| | |
|--|--|
| ArcGIS dasturidagi geoma'lumotlar bazalari turlari: | |
|--|--|

| | |
|---|--|
| Shaxsiy va faylli geoma'lumotlar bazalarining xususiyatlari: | |
|---|--|

| | |
|---|--|
| ArcSDE geoma'lumotlar bazasi va uning xususiyatlari: | |
|---|--|

Keys bir necha guruxlarga bulinib, xar bir tinglovchining fikrini xisobga olgan xolda assesment kilinadi. Javoblar ogzaki va yezma kurinishida bulishi mumkin.

VI. GLOSSARIY

| Termin | O'zbek tilidagi sharhi | Ingliz tilidagi sharhi |
|---|--|---|
| Qatlam Layer | Qatlamlar ro'yxatga olingan yoki geografik bog'langan bo'lib hisoblanadi, ya'ni dastur ushbu qatlamlarning fazodagi joylashlan o'rnini biladi va karta yaratishda ularni bexato ustma-ust o'rnatadi. | Layers are registered or georeferenced , meaning the program knows their location in physical space and can thus overlay them correctly to make a map. |
| Fazoviy ob'ektlar Features | Qatlam tarkibidagi alohida ob'ekt: nuqta, chiziq yoki poligon shaklida bo'lishi mumkin. Ma'lumotlarni taxlil qilish va qayta ishlashda alohida fazoviy ob'ektlardan foydalanilishi mumkin (masalan, birlashtirishda, yangi qatlam sifatida saqlashda). | The individual objects in a layer, either points, lines, or polygons as described above. Individual features can be selected to use in data analysis and processing (e.g., combining, saving as a new layer). |
| Freym ma'lumotlari Data Frame | Bir yoki bir nechta qatlamdan iborat kartaga ega monitordagi oyna. Ma'lumotlar ko'rinishida bitta freym ma'lumotlari ko'rsatilishi mumkin. Bir nechta freym ma'lumotlari kompanovka ko'rinishida ko'rsatilishi mumkin. Freym ma'lumotlaridagi barcha qatlamlar bir turdagi proyeksiya va datumlardan iborat bo'lishi kerak. | A window on the monitor that consists of a map, made up of one or more layers. One frame can be shown at a time in a data view. Multiple frames can be shown at once in a layout view. All the layers in a data frame will need to use the same projection and datum. |
| Element yoki annotatsiya Element or Annotation: | Freym ma'lumotlariga qo'shilgan belgi, sarlavha yoki shu tarzda qo'shilgan grafika (masalan, xar bir funksiya uchun belgi). Alohida elementlar tanlanishi va siljilinishi, yo'qotilishi, o'zgartirilishi va x.k. qilinishi mumkin. | A label, title, or other such graphic added to the data frame (e.g., the labels to each feature). Individual elements can be selected and moved, deleted, resized, etc. |
| Ma'lumotlar ko'rinishi Data View: | O'z kartangizni yaratayotgan yoki ma'lumotlarni tahlil qilayotganingizdagi ko'rinish. Agarda sizning loyixangiz bir nechta kartalarni talab qilsa, u xolda siz bir nechta freym ma'lumotlariga ega bo'lishingiz mumkin, lekin ma'lumotlar ko'rinishida faqat bitta freym ma'lumotlari ko'rinishi mumkin (ya'ni aktivatsiya qilingani). | The view where you build your map and analyze data. If your project requires several maps, you can have multiple data frames, but only one visible ("active") at a time in the data view. |
| Kompanovka ko'rinishi Layout View: | Grafik fayl sifatida eksport qilish uchun yoki nashrga berishda karta yaxshiroq ko'rinishi uchun o'z karta elementlaringizni yaxshiroq tartibga | A view where you can better organize your map elements to look nice for printed output or for exporting as a graphic file. You |

| | | |
|--|---|--|
| | <p>sola olish mumkin bo'lgan ko'rinish. Siz legenda, shimol belgisi, miq'vos, sarlavha va x.k. singari elementlar bilan bir qatorda kompanovka ko'rinishida bir nechta freym ma'lumotlarini xam aks ettirishingiz mumkin.</p> | <p>can display multiple data frames in the layout view, along with other elements such as a legend, north arrow, scale, title, etc.</p> |
| <p>Elementlar jamlangan jadval Table of Contents:</p> | <p>Bu kartadan chapda joylashgan legenda. Qatlamlar ro'yxati shu joyda ochiladi va kartaning tashqi ko'rinishini qatlamlarni yoqish yoki o'chirish va ularning shartli belgilarini o'zgartirish orqali o'zgartirish imkonini beradi. "Manba" vkladkasi ushbu qatlamlarning qaysi qattiq diskda, serverda, kompakt-diskda joylashganligini ko'rsatadi.</p> | <p>This is the legend that appears to the left of the map. Lists the layers open in that view and allows you to alter the look of the map by turning themes on and off and by changing their appearance. The "display" tab shows the layers that are available for display on your map. The "source" tab indicates where these layers are located on your hard drive, on a remote server, on a CD, etc.</p> |
| <p>Qatlamni yoqish/o'chirish Layer On/Off</p> | <p>Agarda qatlam nomidan chapdagi bayroqcha tekshirilgan bo'lsa, unda qatlam yoqilgan va freym ma'lumotlarida aks etayotgan bo'ladi (agarda aksi bo'lsa o'chirilgan bo'ladi).</p> | <p>If the box to the left of the layer's name is checked, the layer is turned on and displays in the data frame (i.e., on the map).</p> |
| <p>Karta xujjati Map Document</p> | <p>ArcMap da yaratilgan ishchi fazo kartasini namoyish qiluvchi fayl. Dasturga konkret karta uchun qaysi qatlamlar ishlatilishi va ularning qanday simvollarga ega ekanligini aytuvchi zakladka fayllari turi. Fayl nomidan keyin .mxd fayl formatiga ega.</p> | <p>A file representing a map workspace created in ArcMap. Sort of a bookmark file, which tells the programs which layers are being used for the particular map and how they're being symbolized. Has .mxd file name extension.</p> |
| <p>Atribut Attribute</p> | <p>(ma'lumotlar modeli) GATda geografik ob'ekt to'g'risida fazoviy bo'lmagan axborot, odatda jadvalda saqlanadi va fazoviy ob'ektga noyob identifikatorlar yordamida bog'lanadi. (ma'lumotlar modeli) Rastrlar ma'motlar to'plamida rastr yacheykasining xar bir noyob qiymatiga bog'liq axborot. (grafika (kartaning aks etishi)) o'ziga xos xususiyatlarning kartada qanday aks etishi va belgilanishini aniqladigan axborot. (ESRI dasturiy ta'minoti) GATda geografik ob'ektlar to'g'risida fazoviy</p> | <p>[data models] Nonspatial information about a geographic feature in a GIS, usually stored in a table and linked to the feature by a unique identifier. [data models] In raster datasets, information associated with each unique value of a raster cell. [graphics (map display)] Information that specifies how features are displayed and labeled on a map. [ESRI software] In MOLE, a spatial information about a</p> |

| | | |
|--|--|--|
| | axborot, odatda jadvalda saqlanadi va fazoviy ob'ektga noyob identifikatorlar yordamida bog'lanadi. | geographic feature in a GIS, usually stored in a table and linked to the feature by a unique identifier. |
| Atribut ma'lumotlar Attribute data | O'ziga xos xususiyatlarning geografik xarakteristikalarini ta'riflovchi tekstli va jadvalli ma'lumotlar. | Tabular or textual data describing the geographic characteristics of features. |
| Gauss-Kryuger proyeksiyasi Gauss-Krüger projection | Dunyoni 6 graduslik standart zonalarga ajratish uchun Merkatorning ko'ndalang proyeksiyasidan foydalaniladigan koordinatalar tizimi proyeksiyasi. Ko'pincha Yevropa va Osiyoda foydalaniladi. Gauss Kryuger koordinatalar tizimi Merkator koordinatalar tizimining ko'ndalang preksiyasiga o'xshash. Gauss Kryuger proyeksiyasi nemes matematigi va olimi Karl Fridrix Gauss va german geodezisti va matematigi Iogann Genrix Lui Kryuger sharafiga atalgan. | A projected coordinate system that uses the transverse Mercator projection to divide the world into standard zones 6 degrees wide. Used mainly in Europe and Asia, the Gauss-Krüger coordinate system is similar to the universal transverse Mercator coordinate system. The Gauss-Krüger projection is named for the German mathematician and scientist Karl Friedrich Gauss and the German geodesist and mathematician Johann Heinrich Louis Krüger. |
| Generalizatsiya Generalization | <ol style="list-style-type: none"> 1. [karta dizayn] miq'yos va o'lchamlarni o'zgartirish uchun abstraksiya, qisqartirish va imkoniyatlarni soddalashtirish. 2. (ma'lumotlarni muxarrirlash) Chiziqda chiziqning mavjud shaklini yo'qotmagan holda nuqtalar miqdorini kamaytirish jarayoni. 3. (ma'lumotlarni muharrirlash) rastr formatida yacheykalarni kengayishi va qayta diskretizatsiyalash jarayoni. | <ol style="list-style-type: none"> 1. [map design] The abstraction, reduction, and simplification of features for change of scale or resolution. 2. [data editing] The process of reducing the number of points in a line without losing the line's essential shape. 3. [data editing] The process of enlarging and resampling cells in a raster format. |
| Geokodlash Geocoding | Ko'chalar manzillarini kartada fazoviy ob'ektlar sifatida aks ettira olishi mumkin bo'lgan fazoviy ma'lumotlarga konvertatsiya qilish uchun GAT operatsiyalari. | A GIS operation for converting street addresses into spatial data that can be displayed as features on a map. |

VII. ADABIYOTLAR RO'YXATI

Maxsus adabiyotlar:

1. K. T. Chang., Introduction to Geographic Information Systems 8th Edition. Mc Graw-Hill International Edition. USA 2015.

2. S.Avezbayev, O.S.Avezbayev. Geoma'lumotlar bazasi va uning arxitekturasi. O'quv qo'llanma, Toshkent 2015 y.
3. E.Yu. Safarov, X.A. Abduraximov, R.Q. Oymatov. Geoinformatsion kartografiya. T, 2012.
4. S.S.Saidqosimov. Geoaxborot tizimlari texnologiyasi. T.: "Iqtisod moliya", 2011.
5. M. Zeiler. Modeling Our World: The ESRI Guide to Geodatabase Design, ESRI Press, 2010.
6. E.Yu.Safarov, I.M.Musayev, H.A.Abdurahimov. Geoaxborot tizimi va texnologiyalari. O'quv qo'llanma, Toshkent 2008 y.
7. I.Masser GIS Worlds:Creating Spatial Data Infrastructures, ESRI Press, 2005.

Internet resurslari:

1. <http://www.esri.com/software/arcgis>
2. <http://gis-lab.info>
3. <http://www.geospatialworld.net>
4. <http://www.gisig.it/best-gis/Guides/main.htm>
5. <http://qgis.org>
6. <http://www.blumarblegeo.com/products/global-mapper.php>
7. <https://doc.arcgis.com/>.